SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 3
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

INNOVATSION DAVRDA O'QITUVCHILARNING TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK O'RNI

Azamova Dilshodaxon Kozimjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti 3-kurs talabasi
azamovadilshoda16@gmail.com

Annotatsiya
Bugungi innovatsion davrda ta'lim jarayonlarida uzluksiz rivojlanishlar kuzatilmoqda. Shu sababdan, ushbu maqolada o'qituvchining ta'lim jarayonidagi pedagogik o'rni asosiy mavzu sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy vazifasi esa zamovaviy o'qituvchining raqamli ta'limga moslashishi va qay tarzda darslarni tashkil etishi, o'quvchilar o'rtasida muloqot o'rnatib, mustaqil fikrlashga yo'naltirishi va innovatsion metodlardan foydalaniladigan sohalarni o'rganishidan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqosslash, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va kompensatsiyaga asoslangan yondashuv o'qituvchi faoliyatining asosiy tarkibi ekanligi aniqlandi. Xulosa sifatida zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, fasilitator, mentor va mutaxassis ekanligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar
innovatsion ta'lim, kompensatsiyaa, raqamli texnologiya, interfaol metodlar, zamonaviy o'qituvchi, fasilitator, pedagogik faoliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В ЭПОХУ ИННОВАЦИЙ

Аннотация: В современную эпоху инноваций в образовательном процессе наблюдается непрерывное развитие. В связи с этим в данной статье анализируется педагогическая роль учителя в образовательном процессе. Основная задача исследования заключается в изучении адаптации современного учителя к цифровому обучению, способов организации занятий, установления коммуникации между учащимися, направленности на самостоятельное мышление,

а также сфер применения инновационных методов. В исследовании использовались такие методы, как анализ научной литературы, сравнение и обобщение. В ходе исследования было установлено, что цифровые технологии, интерактивные методы и компенсаторный подход являются ключевыми компонентами деятельности учителя. В качестве заключения показано, что современный учитель является не просто источником знаний, но и фасилитатором, ментором и специалистом.

Ключевые слова: инновационное образование, компенсация, цифровые технологии, интерактивные методы, современный учитель, педагогическая деятельность.

THE PEDAGOGICAL ROLE OF TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE INNOVATIVE ERA

Abstract: In today's era of innovation, continuous developments are observed in educational processes. For this reason, this article analyzes the pedagogical role of the teacher in the educational process. The main objective of the research is to study the modern teacher's adaptation to digital education, how lessons are organized, how communication is established among students to encourage independent thinking, and the areas where innovative methods are applied. The study utilized methods such as scientific literature analysis, comparison, and generalization. During the research, it was determined that digital technologies, interactive methods, and a compensation-based approach constitute the essential core of a teacher's activity. In conclusion, it is demonstrated that a modern teacher is not merely a provider of knowledge, but a facilitator, mentor, and specialist.

Keywords: innovative education, compensation, digital technology, interactive methods, modern teacher, facilitator, pedagogical activity.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va yangi pedagogik yondashuvlardan foydalanish dolzarbligi kuchaymoqda. Shu sababli o’qituvchining an’anaviy shakldagi dars beruvchi vazifasi kengayib, u ta’lim jarayonida zamon talabiga mos keladigan yuqori saviyada texnologik qurilmalardan foydangan

holda dars tashkil qiluvchi, o’quvchini yo’naltiruvchi va ijodiy fikrlashga undovchi mutaxassisga aylanmoqda. Bu borada rus professori O.B Dautovaning didaktika haqidagi maqolasida aynan mana shu masalaga urg’u berganligini ham kuzatishimiz mumkin. U maqolasida: “O'qituvchi endi shunchaki ma'ruzachi emas, balki o'quvchining ta'lim jarayonini boshqaruvchi, unga yo'nalish beruvchi **menedjer va navigator**ga aylanadi”. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik mahorat masalasi esa asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Negaki, har bir pedagog raqamli vositalardna foydalanishni bilishi, darsni interfaol tashkil etishi, o’quvchini ehtiyojlarini qondiradigan darajada malakali bo’lishi va o’z ustida ishlashi kerak. Mazkur maqolaning maqsadi innovatsion ta’lim sharoitida o’qituvchining pedagogik o’rnini, zamonaviy kompensatsiyalarini va ta’lim jarayonini tashkil etishdagi vazifalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Innovatsion ta’lim - zamonaviy metod va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim tizimini tubdan yangi yondashuvga o’tkzishdir.

Innovatsion ta’limda o’qituvchining vazifasi yanada kengaygan. Ilgari u faqatgina tayyor ma’lumotlarni taqdim etuvchi bo’lgan bo’lsa, hozir o’quv jarayonini tashkil etuvchi bo’ldi. Bu borada raqamli resurslardan foydalanish, interaktiv metodlarni qo’llash, jarayon davomida yuz berdigan qiyinchiliklarni yengillashtiradi. Natijada zamonviy o’qituvchining pedagogik rollari ko’payadi. Birinchi navbatda o’qituvchi bu pedagog, o’z sohasining mutaxassisidir. Dars jarayonida turli xatolardan holi bo’lishlik maqsadida o’qituvchi avvalroq dars rejalari bilan tanishib ularni shaxsan o’zi tayyorlaydi. Bu undan tashkilotchi bo’lishligini talab qiladi. Jarayon mobaynida o’quvchi diqqatini jamlashi va darsni mukammal o’zlashtira olishligi uchun turli matodlarni aralashtirib foydalanadi va o’zidan innovator yasaydi. Bundan tashqari fasilitator, mentor vazifalarini ham bajaradi. Eng asosiy roli esa tarbiyachi vazifasini ado etadi. Zamonaviy hayotimizni raqamli, interfaol qurilmalarisiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Aynan mana shular innovatsion ta’limning asosiy poydevori hisoblanadi. Jumladan: videodarsliklar, onlayn testlar, taqdimotlar, klaster va boshqalar. Bu shundan dalolat beradiki, nafaqat hozirgi pedagoglarimiz balki bo’lajak o’qituvchilarimiz ham media savodxoligini mustahkam

o’rganib borishlari zarur. Buning asosiy sababi, o’rganuvchilarda an’anaviy ta’limga nisbatan yuqorida ta’kidlagan usullar, materiallar, umuman raqamli texnologiyalarni darsda tadbiq etilishi ularning faolligini ikki hatto uch baravar oshirgan. Natijada, o’quvchi ma’lumotni faqat tinglovchi sifatida emas, balki tahlil qiluvchi, izlanuvchi sifatida o’rganadi. Shu bilan birga, o’qituvchining vazifasi texnologiyani qo’llash bilangina cheklanmaydi, uni dars maqsadiga mos tarzda foydalana olishligini ham talab etadi. Zamonaviy o’qituvchining kompensatsiyalari umumiy olganda yuqorida ta’kidlangan barcha atamalarni o’z ichiga oladi. Masalan: pedagogik kompensatsiya. Bunda o’qituvchi darsni samarali, tushunarli va yuqori saviyada tashkil etadi. Raqamli kompensatsiya - kompyuter, elektron doskalardan foydalana olish ko’nikmasi; metodik kompensatsiya - to’g’ri metodni tanlay olish; kommunikativ kompensatsiya - o’quvchi bilan samarali muloqot o’rnatish; kreativ kompensatsiya - yangi g’oya va yechimlar taqdim etish; media kompensatsiyasi - axborotlarni izlash, to’g’ri qo’llash; tadqiqodchilik va madaniy kompensatsiyalardan iborat.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida shuni aytish mumkinki, innovatsion davrda o’qituvchining pedagodik o’rni sezirarli kengaymoqda. Zamonaviy o’qituvchi faqat bilim beruvchi emas, o’quvchini ijodkorligini amaliy hayotga tadbiq etuvchi, komilikka eltuvchi va mustaqil fikrlashga chorlovchi pedagog sifatida ham namoyon bo’ladi. Interfaol metodlar, raqamli didaktika, interaktiv yondashuvlar dars sifati va samaradorligini oshirishgaa xizmat qiladi. Innovatsion ta’lim sharoitida o’qituvchidan raqamli savodxonlik, metodik mahorat, kommunikativ qobiliyat va o’quvchilarga individuallik bilan yondasha oladigan ko’nikma talab etiladi. Ammo faqatgina raqamli savodxonlikning o’zi ta’lim samarasi uchun yetarli emas, ularni dars maqsadi va o’quvchi ehtiyojidan kelib chiqib tanlash ham bir mahoratni talab etadi. Shuningdek, o’qituvchi muntazam o’z ustida ishlashi, yangi metodlarni o’rgnishi va kasbiy tomonlama barcha ko’nikmalarni egallashi lozim. Shu sababdan yosh, zamonaviy pedagoglarga ta’lim-tarbiya berishda raqamli savodxonligini, metodologik tushunchalarini boyitib borish maqsadga muvofiq boladi. Umumiy olib qaraganda, o’qituvchi innovatsion ta’lim tizimining pedagogi, maslahatchisi, tashkilotchisi va mentori hisoblanadi. Uning kasbiy mahorati, yosh intiluvchilarni ijodiy va amaliy faoliyatini rivojlantirishga, ta’lim sifatiga

va jamiyat uchun zarur bo’lgan barcha kompensatsiyalarni shakllantirishga ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dautova, B. E. (2025). The Role of Digital Didactics in Fostering the Creative Competence of Future Educators in Personalized Learning: A Case Study of Uzbekistan. International Journal of Pedagogics, 5(4), 98–104. DOI: 10.37547/ijp/volume05issue04-27.

2. Enhancing the Intellectual Competence of Prospective Teachers through the Pedagogical Implementation of the Design Thinking Approach. (2025). DOI: 10.5281/zenodo.15747461.

3. Developing Future Teachers’ Innovative Methodological Competence through Digital Tools. (2025). DOI: 10.5281/zenodo.17222054.

4. A Model for Developing Transversal-Methodological Competencies in Future Educators. (2025). DOI: 10.5281/zenodo.15331860.

5. Based on Competency Model Technology for Teacher Training for the Teaching Process. (2025). DOI: 10.5281/zenodo.17395216.

6. Mirzaakbarov, D. D. (2025). Digital Interactive Textbooks as a Tool for Enhancing Cognitive and Creative Potential of Future Teachers: International Perspectives. International Journal of Pedagogics, 5(9), 301–303. DOI: 10.37547/ijp/volume05issue09-79.

7. Djurayeva, B. A. (2022). Analysis of Foreign and Domestic Experience Methods of Developing Media Skills of Working with Information Technologies for Future Science Teachers. Current Research Journal of Pedagogics, 3(2), 47–55. DOI: 10.37547/pedagogics-crjp-03-02-09.

8. Bakhramova, A. (2026). Modern Requirements for a Teacher’s Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education. DOI: 10.5281/zenodo.18352383.

9. Distance Training for Training and Retraining of Specialists on Railway Transport. (2023). E3S Web of Conferences, 383, 03011. DOI: 10.1051/e3sconf/202338303011.

10. Teaching Methods for Young English Teachers in Uzbekistan: Toward a Modern, Interactive, and Culturally Grounded Pedagogy. (2025). DOI: 10.5281/zenodo.15595856.